Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2026-yilning yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 51 959,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2025-yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 9,5 % ga o‘sdi.

YAHM deflyator indeksi 2025-yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 107,6 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Jizzax viloyatining qo‘shgan hissasi 3,0 % ni tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-sentabroylarida Jizzax viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot





- YAHM o‘sish sur’ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo‘shgan hissasi

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

	Mlrd. so‘m		***O‘sish sur’atlari,*** *o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da*
	2025- yil	***2026- yil***	
I. YAHM, jami	44 114,4	51 959,4	109,5
shu jumladan:			
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	43 462,0	50 983,9	109,4
mahsulotlarga sof soliqlar	652,4	975,5	113,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**43 462,0**	**50 983,9**	**109,4**
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	**17 080,0**	**19 638,0**	**105,1**
sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	**11 603,5**	**14 265,9**	**117,6**
sanoat	8 875,1	10 525,9	113,1
qurilish	2 728,4	3 740,0	132,2
xizmatlar	**14 778,5**	**17 080,0**	**108,1**
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	5 741,1	6 596,0	109,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 624,4	1 943,4	114,7
boshqa xizmat tarmoqlari	7 413,0	8 540,6	105,9

Quyida keltirilgan infografikada ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 33 869,0 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 7,4 % ga yuqoridir.

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi
(ming so‘mda)





2026- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)





Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi

(jamiga nisbatan % da)

	2025- yil	*2026- yil*
I. YAHM, jami	**100,0**	**100,0**
shu jumladan:		
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	98,5	98,1
mahsulotlarga sof soliqlar	1,5	1,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**100,0**	**100,0**
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	**39,3**	**38,5**
sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	**26,7**	**27,9**
sanoat	20,4	20,6
qurilish	6,3	7,3
xizmatlar	**34,0**	**33,6**
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	13,2	12,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,7	3,8
boshqa xizmat tarmoqlari	17,1	16,9

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 38,5 % ni, sanoat tarmog‘i 27,9 % ni, qurilish 7,3 % ni va xizmatlar sohasi 33,6 % ni tashkil qildi.

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*



YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 2,0 f.p. (2025- yilning yanvar-sentabrida – 2,1 f.p.), sanoat tarmog‘i – 2,6 f.p. (2,3 f.p.), qurilish tarmog‘i – 1,3 f.p. (2,0 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi – 2,7 f.p. (0,3 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning qo‘shgan hissasi YAHM 0,2 f.p. ni tashkil qilib, o‘tgan yil yilning mos davriga nisbatan o‘zgarishsiz qoldi.

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)



2026- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 105,1 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 38,5 %), sanoatda – 113,1 % (20,6 %), qurilishda – 132,2 % (7,3 %), xizmatlar sohasida – 108,1 % ni (33,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 109,0 % (12,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 114,7 % (3,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 105,9 % ni (16,9 %) tashkil qildi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2025- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 109,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat – 113,0 %, xizmatlar hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohalarida – 108,3 % dan qayd etildi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 36 714,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2025- yilning yanvar-sentabr oylarida – 31 515,1 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 72,0 % ni (2025- yilning yanvar-sentabr oylarida – 72,5 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining o‘sishi bilan bog‘liq.

Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi
(jamiga nisbatan %da)



	Hajmi, mlrd.so‘m	Ulushi, % da
2025- yil	31 515,1	72,5 %
2026- yil	36 714,3	72,0 %

